



O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasining rivojlanishi – 2019-yil yakunlari

Xizmatlar sohasining rivojlanishi hozirgi zamон iqtisodiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiyotda xizmatlar o'sishining asosiy omillarini ilmiy bilimlar, nomoddiy shakldagi to'plamlar, axborot texnologiyalari va tadbirkorlik faoliyati integratsiyasi kabi omillar tashkil etadi.

Iqtisodiyotning ushbu sektori turli xil faoliyat turlarini o'z ichiga olib, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga yordam beradi. Ushbu faoliyatning yakuniy natijasi tayyor mahsulot emas, balki ko'rsatilgan xizmatlardir. Xizmatlar nafaqat korxonalarga, balki jismoniy shaxslar - yakuniy iste'molchilarga ham ko'rsatilishi mumkin.


Xizmatlar sohasi — bu korxonalar, tashkilotlar, shuningdek jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil turdagи xizmatlar ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir. Ushbu sohani ko'pincha rivojlangan zamonaviy infratuzilma tufayli sanoatdan keyingi iqtisodiy tuzilma tarzida ko'rildi.

Hozirgi kunda intellektual inson mehnati o'ziga xos rivojlanish va ahamiyat kasb etmoqda, uning bo'linishi maxsus ilmiy tayyorgarlikni, ko'p sonli ish o'rinalarini, odamlarning birgalikdagi sa'y-harakatlarini yuqori darajadagi integratsiyalashuvni va ijtimoiy farovonlikni oshirishni talab qiladigan ko'plab mutaxassislik va kasblarni yaratmoqda.

Ushbu tendensiyalar xizmatlar sohasi va boshqaruв bilan bevosita bog'liq bo'lib, inson faoliyatining boshqa sohalariga nisbatan uning jadal o'sishini belgilaydi. Iqtisodiyotning sanoat va qishloq xo'jaligiga nisbatan yuqori daromadi unga xos xususiyatdir. Shu bilan birga, xizmatlar ro'yxati doimiy ravishda kengayib bormoqda.

2020-yil 1-yanvar holatiga ko'ra Toshkent shahrida jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 83,8 mingtaga yetdi. Xizmatlar ko'rsatish sohasida 61,3 mingtasi iqtisodiy faoliyat turi xizmatlar sohasiga to'g'ri kelib, jamiga nisbatan 73,1 % ga yetib, 2019-yilning shu davriga nisbatan ularning o'sishi 23,4 % ga oshdi.

**2020-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra faoliyat
ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning tarkibi, %**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2020-yil 1-yanvar holatiga, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida savdo xizmatlari bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlar (34,1 %) yuqori ulushni egallaydi.


Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi korxona va tashkilotlarning soni 9,8 % ni tashkil etdi.

Tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi xizmatlar sohasiga tegishli faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi umumiy sonida 5,5 % ga yetdi.

Axborot faoliyati bilan shug'ullanuvchi va aloqa xizmatlarini ko'rsatuvchi korxona va tashkilotlarning ulushi 5,2 % ga teng bo'ldi.

Sog'liqni saqlash hamda ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi 2,5 % ni tashkil etdi.


**2020-yil 1-yanvar holatiga xizmatlar sohasida faoliyat
ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy
faoliyat turlari bo'yicha tuzilmasi, %
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



Kichik tadbirkorlik subyektlari mamlakatda xizmatlar sohasini rivojlantirishga salmoqli hissa qo'shmoqda va shu sababli, tadbirkorlik subyektlarini davlat tomonidan yanada qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish zarur.

Kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining o'sishi xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar umumiyl sonining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

2019-yil yanvar-dekabr oylarida xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni, ming birlik



█ Jami
█ Kichik tadbirkorlik subyektlari

Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik tumanlarining o'zlashtirilishini, ishlab chiqarish samaradorligi va moddiy mahsulotlar iste'molining oshirilishini ta'minlaydi.



O'sish sur'ati
117,2 %

Hajmi **15 120,9**
mlrd. so'mga
oshdi


Xizmatlar hajmi
65 308,8
mlrd. so'm

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2019-yil yanvar-dekabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 65 308,8 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Uning nominal hajmi 15 120,9 mlrd. so'mga oshdi. Taqqoslama ekvivalentda, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish 17,2 % ni tashkil etadi.

**2019-yil yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari, %**



**Moliyaviy
xizmatlar**



**Kompyuter va maishiy
tovarlarni ta'mirlash
bo'yicha xizmatlar**



**Aloqa va
axborotlashtirish
xizmatlari**



**Sog'liqni saqlash
sohasidagi
xizmatlar**



**Yashash va
ovqatlanish
xizmatlari**



**Transport
xizmatlari**



**Shaxsiy
xizmatlar**



**Savdo
xizmatlari**



**Me'morchilik, muhandislik
izlanishlari, texnik sinovlarva
tahlil sohasidagi xizmatlar
xizmatlar**



**Ta'llim sohasidagi
xizmatlar**



Boshqa xizmatlar



Ijara xizmatlari

Eng yuqori o'sish sur'atlari moliyaviy xizmatlar - 151,3 %, kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar - 123,6 %, sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar - 118,5 %, shaxsiy xizmatlar - 112,2 %, savdo xizmatlari - 108,2 %da qayd etildi.

(dasilabki ma'lumotlar)

Yuqori bo'limgan o'sish ta'lim sohasidagi xizmatlar (104,7 %) shuningdek boshqa xizmatlarda (101,7 %) qayd etildi.

**2019-yil yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari**

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Xizmatlar - jami	65 308,8	100,0
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	5 913,0	9,1
Moliyaviy xizmatlar	19 004,8	29,1
Transport xizmatlari	7 649,2	11,7
shu jumladan:		
avtotransport xizmatlari	4 610,0	7,1
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	2 602,9	4,0
Savdo xizmatlari	15 300,9	23,4
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	2 810,8	4,3
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	2 871,3	4,4
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	1 260,1	1,9
Ijara xizmatlari	1 322,3	2,0
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	362,2	0,6
Shaxsiy xizmatlar	767,7	1,2
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	2 054,2	3,1

(dastlabki ma'lumotlar)

Boshqa xizmatlar

3 389,3

5,2

Sifatli o'zgarishlar va institutsional islohotlar chuhurlashishi bilan bir qatorda chakana savdo, umumiyligini ovqatlanish va maishiy xizmatlar kabi xizmat turlari asosan xususiy tadbirkorlikni faollashuvi hisobiga jadal rivojlanmoqda.

Davlatning iqtisodiy siyosatida axborot kommunikatsiya xizmatlari (mobil aloqa, internet, raqamli televideniye va hokazo) kabi zamonaviy aloqa xizmat turlarini shuningdek, zamonaviy moliyaviy xizmat turlarini (bank xizmatlari, lizing, sug'urta, audit, konsalting va boshqalar) rivojlantirish bo'yicha masalalar alohida ahamiyatga ega.

2019-yil yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining tuzilmasi, %




Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2019-yil yanvar-dekabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 65 308,8 mlrd. so'mga teng bo'lib, uning nominal hajmi 15 120,9 mlrd. so'mga oshdi.

(dasilabki ma'lumotlar)

Bozor xizmatlarining umumiyligi hajmida Yunusobod tumanining ulushi eng ahamiyatli bo'lib, 17,7 % ni tashkil etadi. Bunda aholining real daromadlari boshqa tumanlardan ko'ra yuqoriq ekanligi bilan izohlanadi.


**2019-yil yanvar-dekabr oylarida bozor
xizmatlarining umumiyligi hajmida tumanlarning ulushi, %**



Shuningdek, eng katta ulush Mirobod (16,2 %), Shayxontohur (11,1 %), Yashnobod (10,2 %), Chilonzor (10,2 %) va Mirzo Ulug'bek (9,4%) tumanlarida qayd etilgan.

Xizmatlar sohasining eng past ko'rsatkichlari Yakkasaroy (6,1 %), Sirg'ali (5,8 %), Olmazor (5,5 %), Uchtepa (4,6 %), Bektemir (2,6 %) tumanlarida qayd etildi.

**2019-yil yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari, %**



Eng yuqori o'sish sur'atlari moliyaviy xizmatlar (151,3 %), kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar (123,6 %), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (118,5 %), shaxsiy xizmatlar (112,2 %), savdo xizmatlari (108,2 %), ijara xizmatlari (107,4 %), transport xizmatlari (106,8 %) da qayd etildi.

Eng past o'sish sur'atlari boshqa xizmatlar (101,7 %), ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (104,6 %), ta'lim sohasidagi xizmatlar (104,7 %), me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (105,1 %)da qayd etildi.



TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI

(dasilabki ma'lumotlar)

**2019-yil yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan
xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari**

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Toshkent sh.	65 308,8	117,2
<i>tumanlar:</i>		
Bektemir	1 712,3	108,7
Mirzo Ulug'bek	6 168,4	113,6
Mirobod	10 575,1	119,0
Olmazor	3 569,6	117,1
Sirg'ali	3 760,6	108,2
Uchtepa	3 002,4	106,6
Chilonzor	6 677,9	125,1
Shayxontoxur	7 251,1	127,8
Yunusobod	11 572,8	115,1
Yakkasaroy	3 966,1	102,5
Yashnobod	6 687,5	127,8
Tumanlardan tashqari	365,0	104,0

Ichki talabni muvozanatli rag'batlantirish va mahalliy xizmat ishlab chiqaruvchilarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash bo'yicha ko'rيلayotgan choralar xizmatlarga bo'lgan iste'mol talabining tuzilmasidagi o'zgarishlarni ta'minladi. Transport va mobil aloqa xizmatlari, oilaviy

(daslabki ma'lumotlar)

tadbirlar va dam olishni tashkil qilish, internet xizmatlari, maishiy, sog'lijni saqlash va ta'lif xizmatlariga bo'lgan talab ortdi.

**2019-yil yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha
xizmatlar tuzilmasi, %**



Joriy davrda ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiyligi hajmida moliyaviy xizmatlarning ulushi eng katta 29,1 % ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, eng yuqori ulush savdo xizmatlari (23,4 %), transport xizmatlari (11,7 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (9,1 %), boshqa xizmatlar (5,2 %), ta'lif sohasidagi xizmatlari (4,4 %), ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlari (4,3 %), yashash va ovqatlanish xizmatlari (4,0 %) shuningdek me'morchilik, muhandislik

izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (3,1 %) kuzatildi.

(dasilabki ma'lumotlar)

2019-yil yanvar-dekabr oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 19 004,8 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 7 244,4 mlrd. so'mga oshdi.

**2019-yil yanvar-dekabr oylarida tumanlar kesimida
moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati, %**




2018-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan moliyaviy xizmatlarning o'sishi Shayxontohur (98,3 %), Chilonzor (82,2 %), Uchtepa (69,9 %) va Mirzo Ulug'bek (49,2 %) tumanlarida kuzatilmoqda.

Boshqa tumanlarga nisbatan shu davr uchun o'sish sur'atlari Olmazor (101,0 %), Bektemir (105,5 %), Sirg'ali (108,9 %) tumanlarida sezilarli emas.

(dasilabki ma'lumotlar)

Moliyaviy xizmatlar umumi hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi 91,4 % ni tashkil etadi.

2019-yil yanvar-dekabr oylarida moliyaviy xizmatlarning tuzilmasi, %



Xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishi iqtisodiy qarorlar qabul qilish yo'lidan bormoqda. Shunday qilib savdoda qisqa vaqt ichida uning kichik va eng chakana tashkilotning kichik shakllari, kichik-chodirlar, do'konchalar, peshtaxtalar, yengil konstruksiyali va yarmarka turidagi pavilionlar soni ko'paymoqda.

Kichik savdogarlarning yordami bilan iste'mol bozorini to'ldirish muammosi tezda hal qilindi, xaridor esa buning natijasida mahsulotni tanlash imkoniyatiga ega bo'ldi.

Har bir mamlakatning iqtisodiy hayotida savdo xizmati muhim rol o'ynab, bunda, ishlab chiqarish va iste'mol o'rtaсидаги aloqani amalga

(daslabki ma'lumotlar)

oshiradigan, tovarlar ishlab chiqarish hajmi va tuzilmasiga, shuningdek, ularning turli xilligi va sifatini yaxshilashga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.


2019-yil yanvar-dekabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiyligi hajmidagi savdo xizmatlarining ulushi 23,4 % ni tashkil etib, bu 15 300,9 mlrd. so'mga teng bo'ldi.

Ulgurji savdo xizmatlari (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) umumiyligi savdo xizmatlari hajmining qariyb yarmini – 46,8 % tashkil qildi.

2019-yil yanvar-dekabr oylarida chakana savdo (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) xizmatlarining ulushi 44,5 % ga yetdi.

Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar, jumladan, avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda savdo xizmatlarining umumiyligi hajmidagi ulushi 8,7 % ni tashkil etdi.

2019-yil yanvar-dekabr oylari uchun savdo xizmatlari tuzilmasi, %



Transport xizmatlari hajmining oshishi yuk va yo'lovchi tashish xizmatlariga bo'lgan talabning ortishi bilan bog'liq bo'lib, bu o'z navbatida turistik faoliyatning jadal rivojlanishi, savdo tarmog'inining kengayishi,


(daslabki ma'lumotlar)

qurilish bo'yicha loyihalarning yanada amalga oshishi, bino va inshoatlar, shuningdek transport-logistik infratuzilmani rekontruksiya qilish bilan bog'liq.

Hozirgi kunda Toshkent shahrida transport infratuzilmasini rivojlantirish va mamlakatning barcha yo'naliishlari hamda transportning barcha turlari bilan yuk va yo'lovchilarni tashishdagi bilan bog'liq katta imkoniyatlarga ega.

Transport xizmatlarining eng katta ulushi avtomobil transportida yuk va yo'lovchilarni tashish bo'yicha xizmatlarga to'g'ri keladi. Transportning ushbu turi boshqa transport turlari bilan taqqoslanganda uning moslashuvchanligi va ko'rsatilayotgan xizmatlarning nisbatan arzonligi sababli eng ko'p talabga ega hisoblanadi.

2019-yil yanvar-dekabr oylarida transport turlari bo'yicha transport xizmatlarining tuzilmasi, %



Transport xizmatlari umumiylajmida avtomobil transporti ulushi 60,3 % ni tashkil etadi.

Bundan tashqari, saqlash va yordamchi transport xizmatlari 35,3 % tashkil qilgan bo'lsa, temir yo'l transporti orqali ko'rsatilgan xizmatlar – 2,4 %, kuryerlik va pochta faoliyati ulushi esa 2,0 % ga yetdi.

(dasilabki ma'lumotlar)

Bundan tashqari, so'ngi yillarda bozorni zamonaliviy axborot texnikasi va aloqa vositalari bilan jadal to'ldirish yuz bermoqda.


Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi yuqori texnologiyali innovatsion ishlanmalardan foydalanish korxonalarda boshqaruvi va texnologik jarayonlar samaradorligini oshirishga, iqtisodiyotning turli sohalarida tovar va xizmatlarning yangi bozorlarini yaratishga va mavjud bozorlarni kengaytirishga yordam beradi. Bu oxir-oqibat aholi hayotining sifatini yaxshilanishiga olib keladi.

2019-yil yanvar-dekabr oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi 5 913,0 mlrd. so'mga teng bo'ldi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan ushbu turdag'i xizmatlarning o'sishi 6,0 % ga yetdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiyligi hajmdagi ulushi 9,1 % ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va hokazo) egallab, uning ulushi 65,2 % ni tashkil etdi.

2019-yil yanvar-dekabr oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tuzilmasi, %



Joriy davrda aloqa va axborotlashtirish xizmatlari umumiylajmiha nashriyotchilikning ulushi 8,6 %, kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish xizmatlari va boshqa shu kabi xizmatlarning ulushi – 13,4 %, axborot sohasidagi xizmatlar - 4,8 %, boshqa xizmatlar – 8,0 % ni tashkil etdi.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, bilimlar va xizmatlar iqtisodiyotini shakllantirishning eng muhim sharti kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash. Mamlakatga turli ixtisoslashgan sohalarda yuqori darajadagi mutaxassislar kerak. Yuqori malakali kadrlar innovatsion iqtisodiyotni harakatlantiruvchi kuchga aylanishi mumkun.



2019-yil yanvar-dekabr oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 2 871,3 mlrd. so'mga yetdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan 529,8 mlrd. so'mga ko'paydi.

2017-2021 yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblangan ta'lim va fan sohasini rivojlantirish quyidagilardan iborat:

uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish;


ta'limning xalqaro standartlarini joriy etish va o'qitish sifatini baholash, oliy o'quv muassasalariga qabul kvotalarini bosqichma-

(dasilabki ma'lumotlar)

bosqich oshirish, oliy o'quv muassasalarining sifati va samaradorligini oshirish

ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag'batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish, oliy talim muassasalari va ilmiy-tadqiqot institutlari huzurida ilmiy-eksperimental ixtisoslashtirilgan laboratoriyalar, yuqori texnologiyalar markazlari va texnoparklarni tashkil etish.

**2019-yil yanvar-dekabr oylarida tumanlar kesimida
ta'lim sohasida ko'rsatilgan bozor xizmatlarning hajmi, mlrd.so'm.**




Ta'lim sohasida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining eng katta hajmi Olmazor tumanida qayd etildi. 2019-yil yanvar-dekabr oylarida 476,4 mlrd. so'mga yetdi.

Buning sababi shundaki, oliy o'quv muassasalarining to'lov-kontrakt asosida xizmat ko'rsatuvchi eng ko'p qismi, shuningdek xorijiy oliy o'quv muassasalari filiallarining bu yerda joylashganlidadir.

Ta'lim sohasidagi xizmatlar bo'yicha yuqori o'sish sur'ati Chilonzor tumanida – 115,2 % ni tashkil etdi.


**2019-yil yanvar-dekabr oylarida tumanlar kesimida
ta'lif sohasida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining hajmi va o'sish
sur'ati, %**



Bundan tashqari, ta'lif sohasidagi xizmatlarning eng yuqori o'sish sur'ati Olmazor (115,0 %) va Yashnobod (113,0 %) tumanlarida qayd etildi.

2019-yil yanvar-dekabr oylarida eng past o'sish sur'ati Mirzo Ulug`bek tumanida – 88,0 % qayd etildi.

Yashash va ovqatlanish xizmatlari




2018-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'ati 105,1 % ni tashkil etdi, hajmi esa 495,8 mlrd. so'mga oshdi va 2 602,9 mlrd. so'mga yetdi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmida oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar ulushi 71,2 % bilan ustunlik qildi.

2019-yil yanvar-dekabr oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tuzilmasi, %

(dasilabki ma'lumotlar)



- Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar
- Yashash xizmatlari

Joriy yilning oldingi davriga nisbatan yanvar-dekabr oylarida yashash bo'yicha xizmatlar hajmi 495,8 mlrd. so'mga oshdi, ulushi 4,0 % ni tashkil etdi. Ushbu turdag'i xizmatlarning o'sishiga dam olish uylari, bolalar lagerlari, kottejlar va boshqa dam olish maskanlariga bo'lgan talabning oshgani sabab bo'ldi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi, % (2019-yil yanvar-dekabr oylarida)

(daslabki ma'lumotlar)



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning eng yuqori hajmi Yunusobod tumanida 749,4 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bunda 2018-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 221,2 mlrd. so'mga oshishi qayd etildi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning eng kichik hajmi Bektemir tumanida – 22,2 mlrd. so'm qayd etilib, 8,2 mlrd. so'mga ko'paydi.


Yashash va ovqatlanish xizmatlarining eng yuqori o'sishi Bektemir tumanida qayd etildi (146,1 %). Bundan tashqari, Shayxontohur (127,2 %) va Uchtepa (109,0 %) tumanlarida xizmatlar o'sishi kuzatildi.

Mirzo Ulug'bek tumanida o'sish sur'atlari nisbatan katta bo'limgan. Ular 96,2 foizni tashkil etadi.

2019-yil yanvar-dekabr oylarida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi 1 260,1 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 118,5 % ni tashkil etadi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning umumiyligi hajmida tumanlar ulushining taqqoslanishi, %

(daslabki ma'lumotlar)



Tumanlar orasida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar bo'yicha yetakchi o'rinni Olmazor tumani egallaydi. Joriy yilda o'tgan yilning mos davriga nisbatan hajmi 323,8 mlrd. so'mga ko'paydi. Uning sog'liqni saqlash sohasidagi ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiyligi hajmidagi ulushi 25,7 % ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, nisbatan yuqori ulush Mirzo Ulug'bek (18,4 %) va Chilonzor (13,0 %) tumanlarida qayd etildi.

Joriy davrda sog'liqni saqlash sohasida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiyligi hajmidagi xizmatlar ulushi nisbatan katta bo'limgan tumanlar Bektemir (0,6 %) va Sirg'ali (1,4 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

Ko'plab xalqaro ekspertlarning fikriga ko'ra, xizmatlar sohasining jadal rivojlanishi mamlakat iqtisodiyotining zamonaviy tuzilmaviy moslashtirishni muvaffaqiyatli yakunlash uchun hal qiluvchi shartdir.

Xizmatlar sohasining tarmoqlar tarkibi va texnologiyalari tobora murakkablashib borishi, mahsulot sifati va rang-barangligini oshirish, shuningdek, yuqori texnologiyali xizmatlar tarmoqlarining jadal rivojlanishi korxona va tashkilotlar, uy xo'jaliklarining samaradorligi va raqobatbardoshligini yanada oshirishga yordam beradi. Albatta, yangi ish



(dasilabki ma'lumotlar)

o'rinlarini yaratish, investitsiya, soliq va pul-kredit davlat siyosati, ilmiy-texnikaviy ishlarni takomillashtirish, shuningdek, yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda kichik tadbirkorlikni rivojlantirish hisobiga barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash bozor xizmatlarining tarmoqlar tarkibida sifatli tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishga yordam beradi.

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi

71-230-88-15